

IV SHO'BA

MILLIY VA MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA JAHON TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Samadjon MAMUROV,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD

HUDUDIY TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy turizm samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm xizmatlar bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, xususan 2021–2025-yillardagi dinamikasi asosida O'zbekiston turizm sohasining o'sish xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar, jumladan Ispaniya tajribasi bilan komparativ tahlil amalga oshirilib, turizm samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar aniqlangan. Tadqiqot jarayonida SWOT va TOWS tahlil usullari qo'llanilib, hududiy turizmni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Natijada turizm samaradorligini oshirishda raqamlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish muhim omillar ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hududiy turizm, turizm samaradorligi, xorijiy tajriba, turizm bozori, komparativ tahlil, SWOT tahlil, TOWS tahlil, raqamli turizm, turizm infratuzilmasi, barqaror turizm.

Аннотация. В данной статье проанализированы научно-практические аспекты использования передового зарубежного опыта в повышении эффективности регионального туризма. В исследовании раскрыты особенности роста туристической отрасли Узбекистана на основе современных тенденций развития рынка туристических услуг, в частности динамики за 2021–2025 годы. Кроме того, проведён сравнительный анализ с опытом развитых стран, включая Испанию, и определены основные факторы, обеспечивающие эффективность туризма. В ходе исследования были применены методы SWOT и TOWS-анализа, на основе которых разработаны стратегические направления развития регионального туризма. В результате обосновано, что важнейшими факторами повышения эффективности туризма являются цифровизация, развитие инфраструктуры, улучшение качества услуг и диверсификация туристических продуктов.

Ключевые слова: региональный туризм, эффективность туризма, зарубежный опыт, рынок туристических услуг, сравнительный анализ, SWOT-анализ, TOWS-анализ, цифровой туризм, туристическая инфраструктура, устойчивый туризм.

Abstract. This article analyzes the scientific and practical aspects of utilizing advanced foreign experience in improving the efficiency of regional tourism. The study examines modern trends in the development of the tourism services market, particularly highlighting the growth dynamics of Uzbekistan's tourism sector during 2021–2025. A comparative analysis with developed countries, especially Spain, is conducted to identify the key factors influencing tourism efficiency. The research applies SWOT and TOWS analytical methods to determine strategic directions for the development of regional tourism. The findings justify that digitalization, infrastructure development, improvement of service quality, and diversification of tourism products are critical factors in enhancing tourism efficiency.

Keywords: regional tourism, tourism efficiency, foreign experience, tourism market, comparative analysis, SWOT analysis, TOWS analysis, digital tourism, tourism infrastructure, sustainable tourism.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy o'sish, balki hududiy rivojlanish, bandlikni ta'minlash va infratuzilmani modernizatsiya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda turizmni rivojlantirish masalasi endilikda faqat sayyohlar sonini oshirish bilan emas, balki hududiy turizm samaradorligini ta'minlash, ya'ni mavjud resurslardan maksimal natija olish, xizmatlar sifatini oshirish va barqaror rivojlanishni yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda.

So'nggi yillarda xalqaro turizmning jadal tiklanishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Xususan, UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda dunyo bo'yicha xalqaro turistlar soni 1,52 milliard nafarga yetib, tarixiy rekord darajani qayd etdi²²⁴. Bu ko'rsatkich turizm bozorida keskin raqobat kuchayib borayotganini hamda har bir mamlakat va hudud o'z turizm salohiyatidan samarali foydalanishi zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur sharoitda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishda hududiy yondashuv, innovatsion boshqaruv modellari, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda samaradorlikni kompleks baholash tizimlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, milliy va mahalliy darajada turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish, ularni moslashtirish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston misolida turizm sohasining jadal rivojlanishi, hududlar kesimida turizm salohiyatining farqlanishi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati ushbu mavzuning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shundan kelib chiqib, hududiy turizm samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish masalasini chuqur o'rganish va ilmiy asoslash bugungi kunda dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hududiy turizm samaradorligini oshirish va bu jarayonda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, turli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Xususan, Larry Dwyer va Peter Forsyth tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizmning iqtisodiy samaradorligini baholashda resurslardan foydalanish darajasi, turizm daromadlari va ijtimoiy ta'sir omillarini kompleks tahlil qilish zarurligi asoslab berilgan²²⁵. Ularning ishlanmalarida turizm samaradorligini oshirish uchun davlat siyosati va infratuzilmaviy rivojlanishning uyg'unligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Shuningdek, John Tribe turizmni rivojlantirishda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy va ekologik omillarni ham hisobga olgan holda barqaror rivojlanish konsepsiyasini qo'llash zarurligini e'tirof etadi²²⁶. Uning ilmiy

²²⁴ <https://www.untourism.int/news/international-tourist-arrivals-up-4-in-2025-reflecting-strong-travel-demand-around-the-world>

²²⁵ Dwyer, L., & Forsyth, P. (2006). International handbook on the economics of tourism. Edward Elgar Publishing.

²²⁶ Tribe, J. (2015). The economics of recreation, leisure and tourism (4th ed.). Routledge.

yondashuvi turizm samaradorligini “ko‘p o‘lchovli tizim” sifatida talqin qilishga asos yaratdi.

Chris Cooper esa hududiy turizmni rivojlantirishda destinatsiya boshqaruvi (Destination Management) modelining ahamiyatini asoslab, turizm samaradorligini oshirishda marketing, infratuzilma va xizmatlar sifatini integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi²²⁷. Uning tadqiqotlari asosida hududiy turizmni boshqarishda klaster yondashuvi samarali ekanligi aniqlangan.

Bundan tashqari, Ritchie Brent va Geoffrey Crouch tomonidan ishlab chiqilgan “destination competitiveness” modeli turizm samaradorligini oshirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi²²⁸. Ushbu modelga ko‘ra, hududning raqobatbardoshligi resurslar, boshqaruv, innovatsiyalar va tashqi muhit omillarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq bo‘lib, samaradorlikni oshirish aynan shu omillarni optimallashtirish orqali erishiladi.

Yana bir muhim ilmiy yo‘nalish Daniel J. Botti va Nathalie Peypoch tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ular turizm samaradorligini baholashda DEA (Data Envelopment Analysis) usulidan foydalangan holda hududlar kesimida samaradorlikni o‘lchash modelini taklif etgan²²⁹. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm infratuzilmasi rivojlangan hududlar har doim ham samarali ishlaymaydi, balki boshqaruv sifati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Umuman olganda, xorijiy olimlarning tadqiqotlari hududiy turizm samaradorligini oshirishda kompleks yondashuv, innovatsion boshqaruv, raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillarining muhimligini asoslab beradi. Bu esa milliy turizmni rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarni moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Hududiy turizm samaradorligini baholash va uni oshirish yo‘llarini aniqlashda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llaniladi. Xususan, tadqiqot jarayonida komparativ (taqqoslama) tahlil usuli orqali rivojlangan mamlakatlarning turizmni boshqarish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilg‘or tajribalari O‘zbekiston sharoiti bilan solishtiriladi.

Shuningdek, hududiy turizmning ichki imkoniyatlari va tashqi omillarini aniqlash maqsadida SWOT tahlil hamda uning amaliy rivojlantirilgan shakli bo‘lgan TOWS tahlildan foydalaniladi. Bu usullar orqali mavjud resurslardan samarali foydalanish, strategik ustuvor yo‘nalishlarni belgilash hamda xorijiy tajribalarni moslashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlil va umumlashtirish usullari qo‘llanilib, hududiy turizm samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar shakllantiriladi.

So‘nggi yillarda jahon turizm tizimida hududiy rivojlanish va samaradorlikni oshirish masalasi strategik ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Global tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, turizmni rivojlantirish endilikda faqat turistlar

²²⁷ Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). *Tourism: Principles and practice* (4th ed.). Pearson Education.

²²⁸ Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2003). *The competitive destination: A sustainable tourism perspective*. CABI Publishing.

²²⁹ Botti, L., Peypoch, N., & Solonandrasana, B. (2009). Time efficiency of tourism destinations. *Annals of Tourism Research*, 36(4), 742–754.

oqimini ko'paytirishga emas, balki har bir hududning iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy salohiyatidan maksimal darajada samarali foydalanishga qaratilmoqda. Bu jarayonda bir qator ijobiy o'zgarishlar va zamonaviy tendensiyalar shakllanmoqda.

Avvalo, rivojlangan davlatlarda turizmni boshqarish tizimi markazlashgan yondashuvdan hududiy va klaster yondashuvga o'tmoqda. Masalan, Ispaniya, Italiya va Fransiya kabi mamlakatlarda turizm destinatsiyalari alohida hududiy klasterlar sifatida rivojlantirilib, ular o'zining brendi, xizmatlar tizimi va boshqaruv modeliga ega bo'lmoqda. Bu esa turizm xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va turistlarning hududiy taqsimotini muvozanatlashtirish imkonini bermoqda. Natijada ortiqcha yuklama (overtourism) muammosi kamayib, kam rivojlangan hududlarga ham turistlar oqimi yo'naltirilmoqda.

Ikkinchi muhim tendensiya – raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdir. Bugungi kunda ko'plab davlatlar "Smart tourism" konsepsiyasini faol rivojlantirmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Singapur va BAAda turizm infratuzilmasi sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), mobil ilovalar va IoT texnologiyalari asosida boshqarilmoqda. Bu esa turistlar xulq-atvorini real vaqt rejimida tahlil qilish, xizmatlarni shaxsiylashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Natijada turizm xizmatlari sifati oshib, xarajatlar optimallashtirilmoqda.

Uchinchi yo'nalish sifatida barqaror turizm konsepsiyasining kuchayib borayotganini ko'rish mumkin. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik toza turizm, "yashil destinatsiyalar" va ijtimoiy mas'uliyatli turizm modellari keng joriy etilmoqda. Masalan, Shvetsiya va Norvegiyada turizmni rivojlantirishda ekologik yuklamani kamaytirish, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish va tabiiy resurslarni asrash asosiy mezon sifatida belgilanmoqda. Bu esa uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, turizm samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv modellari ham keng qo'llanilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, marketing strategiyalarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar zanjirini integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, BAA (Dubay) tajribasida davlat tomonidan yaratilgan qulay investitsion muhit va xususiy sektor faolligi natijasida qisqa vaqt ichida yuqori samarali turizm tizimi shakllantirilgan.

O'zbekiston tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, so'nggi yillarda turizm sohasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, viza rejimining liberallashtirilishi, transport va mehmonxona infratuzilmasining rivojlantirilishi, yangi turizm yo'nalishlarining ochilishi hududiy turizmni faollashtirishga xizmat qilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi an'anaviy turistik markazlar bilan bir qatorda Qoraqalpog'iston, Surxondaryo va Farg'ona vodiysi hududlarida ham turizm salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda turizmni hududiy rivojlantirishda klaster yondashuvi, ziyorat turizmi, ekoturizm va gastronomik turizm kabi yo'nalishlar faol rivojlanmoqda. Masalan, ziyorat turizmi doirasida tarixiy va diniy obyektlar infratuzilmasi yaxshilanib, xizmatlar sifati oshirilmoqda. Bu esa nafaqat turistlar

sonining ko‘payishiga, balki turizm xizmatlari samaradorligining oshishiga ham xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim tendensiya – turizm samaradorligini baholash tizimlarini joriy etishdir. Jahon tajribasida Tourism Satellite Account (TSA), turizm raqobatbardoshligi indeksleri va samaradorlik ko‘rsatkichlari keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham turizm statistikasi va tahliliy tizimlarini takomillashtirish orqali hududiy kesimda samaradorlikni baholash imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Umuman olganda, jahon va milliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, hududiy turizm samaradorligini oshirishda kompleks yondashuv, innovatsiyalar, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan siyosat muhim ahamiyatga ega. Aynan shu omillarni uyg‘unlashtirish orqali turizm sohasida yuqori iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishish mumkin.

2021 – 2025-yillarda turizm xizmatlar bozori pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichidan barqaror o‘shish bosqichiga o‘tdi. O‘zbekistonda xalqaro kiruvchi turistik safarlar 2021-yildagi 1,881.3 mingdan 2025-yilda 11,679.6 mingga yetib, qariyb 6,2 baravar oshdi. Shu davrda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 2021-yildagi 1,085 tadan 2024-yilda 2,383 taga yetgan, ya’ni infratuzilma ham talab ortidan tez kengaygan. Bu holat milliy turizm bozorida talab va taklifning bir vaqtda kengayib borayotganini, ayniqsa hududiy turizm salohiyati bosqichma-bosqich iqtisodiy resursga aylana boshlaganini ko‘rsatadi.

Ilg‘or xorijiy mamlakat sifatida Ispaniya bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan turizm bozorlarida o‘shish faqat turistlar oqimi bilan emas, balki yuqori darajadagi sarf-xarajat va xizmatlar qiymati bilan ham ta’minlanadi. Ispaniyada xalqaro turistlar soni 2021-yildagi 31.2 milliondan 2025-yilda 96.8 millionga yetgan, xalqaro turistlar xarajati esa 34.82 milliard yevrodan 134.712 milliard yevroga oshgan. Bu O‘zbekiston uchun faqat oqimni ko‘paytirish emas, balki bir turistga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy qiymatni oshirish, qolish muddatini uzaytirish va hududiy diversifikatsiyani kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Amaliy jihatdan qaralganda, O‘zbekiston bo‘yicha 2022-yilda eng keskin tiklanish kuzatilgan bo‘lsa, 2025-yilda yana kuchli tezlashuv qayd etildi. Bu esa turizm bozorida endi oddiy tiklanish emas, balki yangi talab segmentlari, transport aloqalari, ziyorat turizmi, ichki infratuzilma va marketing siyosatining samara bera boshlaganidan dalolat beradi. Biroq Ispaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli samaradorlikka erishish uchun oqim o‘shishini hududiy boshqaruv, xizmatlar sifati, raqamlashtirish va yuqori daromadli turistik mahsulotlar bilan mustahkamlash zarur.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda turizm xizmatlar bozori 2021-yildan keyin izchil yuqori o‘shish trayektoriyasiga chiqqan. Eng katta sakrash 2022-yilda kuzatilgan bo‘lsa, 2025-yilda ham juda yuqori – 46.8 foizlik o‘shish qayd etilgan. Bu milliy turizm bozorida talab tiklanganini emas, balki kengayganini ko‘rsatadi. Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan, ushbu dinamika hududiy turizm siyosatini endi faqat turistlar soni bilan emas, balki xizmat sifati, o‘rtacha xarajat, qolish muddati va hududlar kesimidagi samaradorlik bilan baholash zarurligini anglatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda 2021–2025-yillarda turizm xizmatlar bozori rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari²³⁰

Yil	Xalqaro kiruvchi turistik safarlar, ming	Oldingi yilga nisbatan o‘shish, %	2021-yilga nisbatan o‘shish, %
2021	1881,3	–	–
2022	5232,8	178,1	178,1
2023	6626,3	26,6	252,2
2024	7957,2	20,1	322,9
2025	11679,6	46,8	520,8

Hududiy turizm samaradorligini chuqurroq baholash va milliy turizm bozorining rivojlanish darajasini aniqlash uchun uni ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday komparativ yondashuv nafaqat o‘shish sur‘atlarini, balki turizm bozorining yetuklik darajasi, boshqaruv samaradorligi va xizmatlar qiymatini ham tahlil qilish imkonini beradi.

2-jadval.

O‘zbekiston va Ispaniyada 2021–2025-yillarda xalqaro turistik oqimlar dinamikasi²³¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
O‘zbekiston (mln. safar)	1,88	5,23	6,63	7,96	11,68
O‘shish sur‘ati, %	–	178,1	26,6	20,1	46,8
Ispaniya (mln. turist)	31,2	71,7	85,2	93,8	96,8
O‘shish sur‘ati, %	–	129,8	18,8	10,1	3,2

Taqqoslashdan ko‘rinadiki, O‘zbekistonning o‘shish sur‘atlari yuqori, biroq mutlaq hajm bo‘yicha Ispaniya hali ham ancha oldinda. 2025-yilda Ispaniya 96.8 million xalqaro turist qabul qilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda shu ko‘rsatkich 11.68 million safarni tashkil etdi; ya‘ni Ispaniya hajmi taxminan 8.3 baravar yuqori. Shu bilan birga, O‘zbekistonning tez o‘shishi bozorning “ekspansiya bosqichi”da ekanini, Ispaniya esa “yetuk va yuqori monetizatsiyalashgan bozor” ekanini bildiradi. Demak, O‘zbekiston uchun asosiy vazifa endi faqat oqimni ko‘paytirish emas, balki Ispaniya tajribasidagi kabi turist boshiga daromad, hududiy mahsulotlar diversifikatsiyasi va servis zanjiri samaradorligini oshirishdan iborat.

Mazkur jadvallar asosida aytish mumkinki, O‘zbekistonda turizm xizmatlar bozori 2021–2025-yillarda juda faol kengaygan va bu jarayon hududiy turizm samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq ilg‘or xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yuqori samaradorlik faqat oqim o‘shishi bilan emas, balki servis sifati, hududiy boshqaruv, raqamli marketing, infratuzilma va yuqori qo‘shilgan qiymatli turistik mahsulotlar bilan ta‘minlanadi. Shu sababli O‘zbekiston uchun keyingi bosqichda asosiy ustuvor yo‘nalish hududlar kesimida turist oqimini

²³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, “The number of foreign persons who entered the Republic of Uzbekistan for tourism purposes (officially declared)” API ma‘lumotlari va “Tourist Flows, January–December 2025” hisobot ma‘lumotlari.

²³¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi; Spain National Statistics Institute (INE), FRONTUR annual results for 2024 and 2025. 2021–2023 bo‘yicha Ispaniya qatori rasmiy FRONTUR/EGATUR asosidagi davlat press-revizlari bilan tasdiqlanadi.

ko‘paytirish bilan birga, har bir turistdan olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy samarani oshirish bo‘lishi kerak.

Hududiy turizm samaradorligini oshirish jarayonida strategik qarorlar qabul qilishda SWOT va TOWS tahlil usullari muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. SWOT tahlil orqali hududiy turizmning ichki omillari (kuchli va zaif tomonlar) hamda tashqi omillari (imkoniyatlar va tahdidlar) tizimli ravishda aniqlanadi. Bu esa turizm salohiyatini baholash, resurslardan foydalanish darajasini aniqlash va muammoli nuqtalarni belgilash imkonini beradi.

Biroq, SWOT tahlil asosan diagnostik xarakterga ega bo‘lib, u mavjud holatni aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli, amaliy strategiyalarni ishlab chiqishda uning rivojlangan shakli bo‘lgan TOWS tahlil alohida ahamiyat kasb etadi. TOWS modeli SWOT natijalarini o‘zaro bog‘lab, “aniq strategik yo‘nalishlar (SO, WO, ST, WT strategiyalar)”ni ishlab chiqishga imkon beradi. Ayniqsa, ilg‘or xorijiy tajribalarni hududiy turizmga moslashtirishda TOWS yondashuvi juda samarali bo‘lib, u tashqi imkoniyatlardan maksimal foydalanish va ichki zaifliklarni bartaraf etishga qaratilgan strategiyalarni shakllantiradi.

Shu jihatdan, SWOT va TOWS tahlillari birgalikda qo‘llanilganda hududiy turizmni rivojlantirishda kompleks, ilmiy asoslangan va amaliy samaradorlikka yo‘naltirilgan qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi.

3-jadval

Hududiy turizm (O‘zbekiston misolida)

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
Boy tarixiy-madaniy meros (Samarqand, Buxoro, Xiva)	Ba’zi hududlarda infratuzilmaning yetarli emasligi
Ziyorat turizmi salohiyatining yuqoriligi	Xizmatlar sifati hududlar kesimida notekis
Geografik joylashuv (Markaziy Osiyo markazi)	Marketing va brending yetarli darajada rivojlanmagan
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati	Malakali kadrlar yetishmasligi
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
Raqamli turizm (Smart tourism) rivoji	Global iqtisodiy beqarorlik
Xalqaro turizm oqimining o‘sishi	Kuchli xalqaro raqobat (Turkiya, BAA)
Investitsiyalar va PPP loyihalari	Ekologik muammolar va ortiqcha yuklama
Yangi turizm yo‘nalishlari (eko, gastro, MICE)	Geosiyosiy xavflar

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hududiy turizm samaradorligini oshirish zamonaviy turizm siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2021–2025-yillar davomida O‘zbekistonda turizm xizmatlar bozori jadal rivojlanib, xalqaro turistik oqimlar sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu esa mamlakatda turizm salohiyatining yuqori ekanligini va amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natija berayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ilg‘or xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori samaradorlikka erishgan mamlakatlarda turizm rivoji faqat turistlar sonining ko‘payishi bilan emas, balki xizmatlar sifati, innovatsiyalar, hududiy boshqaruv va barqarorlik tamoyillariga asoslanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududiy turizm samaradorligini kompleks baholash tizimini joriy etish. Turizm samaradorligini faqat statistik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy indikatorlarni o‘z ichiga olgan integral indekslar asosida

baholash maqsadga muvofiq.

2. Ilg'or xorijiy tajribalarni moslashtirish asosida hududiy boshqaruvni takomillashtirish.

Xususan, Ispaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidagi destinatsiya boshqaruvi va klaster yondashuvlarini O'zbekiston hududlarida joriy etish samaradorlikni oshiradi.

3. Raqamli texnologiyalar va "Smart tourism" konsepsiyasini keng joriy etish. Turizm xizmatlarini raqamlashtirish, onlayn platformalarni rivojlantirish va turistlar oqimini real vaqt rejimida boshqarish orqali xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish mumkin.

4. Hududiy infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish. Ayniqsa, turizm salohiyati yuqori bo'lgan, ammo kam rivojlangan hududlarda transport, mehmonxona va servis infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish va xizmatlar sifati yaxshilash. Xalqaro standartlar asosida turizm mutaxassislarini tayyorlash, xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish zarur.

6. Turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Ziyorat turizmi bilan bir qatorda ekoturizm, gastronomik turizm, MICE turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali hududiy turizm daromadlarini oshirish mumkin.

7. Barqaror turizm tamoyillarini joriy etish. Ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish va resurslardan oqilona foydalanish orqali uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlash zarur.

Umuman olganda, hududiy turizm samaradorligini oshirishda kompleks yondashuv, innovatsion boshqaruv va ilg'or xorijiy tajribalarni moslashtirish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar O'zbekistonning turizm sohasida xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Чари ХУСАНОВ,

Тошкент давлат шарқшунослик университети доценти, и.ф.н.

“FOOD TOURISM” КОНСЕПЦИЯСИНИНГ ГЛОБАЛ ЭВОЛЮЦИЯСИ ВА МИНТАҚАВИЙ АДАПТАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Мазкур тезисда гастроном туризм концепциясининг глобал миқёсда эволюцион ривожланиши таҳлил этилади. Тадқиқотда юқори натижаларга эришган давлатлар – Перу, Таиланд ва Япония – тажрибасини қиёсий ўрганиши асосида минтақавий адаптациянинг асосий шарт ва омиллари аниқланади. Ўзбекистон учун миллий гастроном туризм стратегиясини ишлаб чиқишга доир амалий таклифлар баён этилади.

Калим сўзлар: гастроном туризм, food tourism, минтақавий адаптация, кулинария дестинацияси, миллий ошхона бренди.

Аннотация. В данном тезисе анализируется эволюционное развитие концепции гастрономического туризма в глобальном масштабе. В исследовании на основе